

PROFILAKTIKA INSPEKTORI TOMONIDAN ILGARI SUDLANGAN SHAXSLAR O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASINI TASHKIL ETISH FAOLIYATINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Embergenov Azimjon Kadirbergen uli

*IIV Akademiyasi 3-o'quv kursi,
313 guruh kursanti.*

Annotatsiya. *Mazkur ilmiy maqolada profilaktika inspektori tomonidan ilgari sudlangan shaxslar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etish faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari ilmiy-huquqiy jihatdan tahlil etilgan. Tadqiqotda ushbu toifadagi shaxslar bilan ishlashda profilaktika inspektorining vazifalari, vakolatlari hamda individual profilaktika chora-tadbirlarini amalga oshirish mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, ilgari sudlangan shaxslarni jamiyatga ijtimoiy moslashtirish, ular tomonidan qayta jinoyat sodir etilishining oldini olishda profilaktik suhbatlar, nazorat va hamkorlikning ahamiyati asoslab berilgan. Maqolada amaldagi qonunchilik normalari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati hamda amaliyotda uchrayotgan muammolar tahlil qilinib, profilaktika faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar. *profilaktika inspektori, ilgari sudlangan shaxslar, huquqbuzarliklar profilaktikasi, individual profilaktika, qayta jinoyatchilik, ijtimoiy moslashuv, profilaktik hisob, huquqni muhofaza qiluvchi organlar.*

Huquqbuzarliklar profilaktikasi jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash va jinoyatchilik darajasini pasaytirishga qaratilgan davlat siyosatida ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ilgari sudlangan shaxslar tomonidan qayta huquqbuzarlik sodir etilishi xavfining yuqoriligi mazkur toifadagi shaxslar bilan profilaktik ishlarni ilmiy asosda tashkil etish zaruratini keltirib chiqaradi.

Ilgari sudlangan shaxslar ko'p hollarda ijtimoiy moslashuvda qiyinchiliklarga duch keladi, mehnat bozorida raqobatbardoshlikka ega emasligi yoki salbiy ijtimoiy muhit ta'sirida qolishi natijasida qayta jinoyat sodir etish ehtimoli ortadi. Shu nuqtai nazardan, profilaktika inspektorining maqsadli, tizimli va individual yondashuvga asoslangan faoliyati jinoyatchilik profilaktikasining muhim omili sifatida namoyon bo'ladi.

Ilgari sudlangan shaxslar tomonidan takror huquqbuzarliklar sodir etilishini oldini olish shuningdek, ularga tarbiyaviy ta'sir o'tkazish maqsadida ichki ishlar organlarining profilaktika xizmatlari tomonidan hisob profilaktik ishi yuritiladi. Bu toifa shaxslarni hisobga qo'yish uchun asos bo'lib – sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi, shaxsning jazoni ijro etish muassasasidan ozod qilinganligi to'g'risidagi ma'lumotnoma yoki uning sudlanganligini isbotlovchi boshqa hujjatlar hisoblanadi.

Ilgari sudlangan shaxslarga nisbatan profilaktika (katta) inspektori «Huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida» gi qonunning 36-moddasining birinchi qismida ko'rsatilgan profilaktik hisobga olish asoslaridan biri mavjud bo'lganda, shaxsni

profilaktik hisobga qo'yish to'g'risida ichki ishlar tuman, shahar bo'limining, boshqarmasining boshlig'i tomonidan tasdiqlanadigan qaror chiqaradi. Mazkur qaror shaxsni profilaktik hisobga qo'yish uchun asoslar mavjudligidan dalolat beruvchi hujjatlar mansabdor shaxs tomonidan olingan kundan e'tiboran o'n kun ichida chiqariladi. Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ilgari sudlangan shaxslarga nisbatan profilaktik hisobga qo'yish to'g'risidagi qaror ular yashash joyiga yetib kelgan kundan e'tiboran uch kun ichida chiqariladi.

Profilaktik hisobga olingan ilgari sudlangan shaxsga nisbatan hisob profilaktik ishi yuritiladi va huquqbuzarliklarning oldini olish xizmati tomonidan yuritiladigan maxsus kitobda qayd etilib, ularga tegishli tartib raqami beriladi. Ozodlikdan mahrum etish jazosini o'tab kelgan shaxslarning hisob profilaktika ishida jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilganligi to'g'risidagi ma'lumotnoma nusxasi, ishga joylashtirish to'g'risidagi shahar-tuman mehnat bo'limlariga, hayotga moslashishlari uchun dastlabki yordam ko'rsatish maqsadida joylardagi ijtimoiy ko'nikma markazlari va maxsus komissiyalarga yuborilgan xatlarning nusxasi, kelgusida huquqbuzarlik sodir etmasligi to'g'risida rasmiy ogohlantirish hujjati, Axborot markazi va manzil-ma'lumotlar byurosining ma'lumotlari, yaqin qarindoshlari va jinoiy aloqalari chizmasi, barmoq izlarining «Sonda» bazasiga kiritilganligini tasdiqlovchi, shuningdek yashash va ish joyidan tavsifnoma, murabbiy biriktirilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar, doimiy yoki vaqtinchalik yashash joyini tekshirilganligi haqidagi profilaktika inspektori yoki boshqa sohaviy xizmat xodimlarining bildirgilari jamlab boriladi (*boshqa qo'shimcha hujjatlar talab etilmaydi*).

Profilaktik hisobda turgan barcha toifadagi shaxslarning, shu jumladan ilgari sudlangan shaxslarning ro'yxatlari ichki ishlar organi navbatchilik qismidagi kompyuterning alohida faylida saqlanadi va ushbu ma'lumotlardan xizmatda foydalaniladi. Ro'yxat hisobot oyining yakuni bo'yicha ichki ishlar organi hisobni qayd etish inspektori tomonidan Axborot markazidan olingan ma'lumotlar asosida yangilab boriladi.

Jazoni ijro etish muassasalaridan bo'shatilgan shaxslar o'zlarining yashash joylariga yetib kelgan kundan boshlab uch kun ichida profilaktik hisobga olinadi va ularga nisbatan 1 yil muddat davomida hisob profilaktik ishi yuritiladi.

O'zbekiston Respublikasi «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi qonuniga asosan ilgari sudlangan shaxs sifatida profilaktik hisobda turgan shaxslar agar ularga profilaktik hisob amalga oshirilishi davrida ushbu qonunning 36-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan yangi asoslar vujudga kelsa, profilaktik hisobga olish muddatini hisoblash yangi vujudga kelgan asoslar bo'yicha profilaktik hisobga qo'yilgan paytdan e'tiboran amalga oshiriladi. Demak, profilaktik hisob muddati davom ettiriladi, biroq bunda yangi vujudga kelgan asosga ko'ra shaxs endi ilgari sudlangan shaxs sifatida emas, balki yangi vujudga kelgan asoslarga ko'ra (35-moddaga asosan) boshqa toifada turadi.

Profilaktika inspektorlarining huquqiy maqomidan kelib chiqqan holda yuqoridagi keltirilgan toifadagi ilgari sudlangan shaxslar bilan ishlash faoliyati bir-biri bilan bog'liq bo'lgan quyidagi yo'nalishgarga ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Profilaktika inspektorining ilgari sudlangan shaxslar o'rtasida (bevosita o'zi) profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish faoliyati;

2. Profilaktika inspektorining ilgari sudlangan shaxslar o'rtasida (biriktirilgan ma'muriy hududda) hamkorlikda profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish faoliyati:

– jazoni ijro etish muassasalari bilan hamkorlikda profilaktik choralarni amalga oshirish uchun mas'ul;

– jazoni ijro etish inspeksiya bilan hamkorlikda profilaktik choralarni amalga oshirish uchun mas'ul.

Profilaktika inspektorining ilgari sudlangan shaxslar o'rtasida bevosita o'zi profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirishga mas'ul hisoblanadi. Ular ijtimoiy hayotda o'z yo'lini topa olmayotgan, turli huquqbuzarlik sodir etishga moyil shaxslar, ayniqsa ilgari sudlangan shaxslar bilan tarbiyaviy mazmundagi profilaktik ishlarni olib boradilar.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi jarayonida qo'llaniladigan mazkur profilaktik chora-tadbirlar *ilgari sudlangan shaxslar* tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarliklarni, shuningdek huquqbuzarlik sodir etish sabablari va ularga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish maqsadida qo'llaniladi va huquqbuzarliklar profilaktikasining huquqiy-ijtimoiy, tashkiliy hamda boshqa chora-tadbirlardan iborat bo'ladi. Mazkur profilaktik chora-tadbirlar mazmuniga ko'ra bir nechta turlarga jumladan, huquqbuzarliklarning umumiy, yakka, maxsus, viktimologik profilaktikasiga bo'linadi.

1) Profilaktika (katta) inspektorlarining ilgari sudlangan shaxslar o'rtasida amalga oshiradigan huquqbuzarliklarning *umumiy profilaktikasi* – bu ommaviy axborot vositalarida chiqishlar qilish, joylarda ma'ruzalar o'qish, davra suhbat, uchrashuvlar tashkil etish, aholi gavjum joylarda huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir plakatlarni, e'lonlar joylashtirish, video roliklar namoyish qilish, ogohlikka chaqiruvchi ovoqli matnni eshittirish, shuningdek aholi gavjum joylarda hamda piyodalarning faol harakatlanish yo'nalishlarida patrullik yo'nalishlarini tashkil etish, ma'muriy hududni profilaktik ko'zdan kechirish kabi profilaktik chora-tadbirlarni o'z ichiga qamrab oladi.

Profilaktika (katta) inspektori ma'muriy hududda istiqomat qilayotgan ilgari sudlangan shaxslarda g'ayriijtimoiy xulq-atvorning shakllanishiga yoki alohida turdagi huquqbuzarliklarning sodir etilishini taqozo etayotgan sabablarni va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlaganda ularni bartaraf etish yuzasidan korxona, muassasa, tashkilot hamda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga hududiy ichki ishlar organi boshlig'i orqali, vazirliklar va qo'mitalarga esa Ichki ishlar vazirligi tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda taqdimnoma kiritiladi. Shuningdek keng jamoatchilik o'rtasida umumiy tartibdagi huquqiy-targ'ibot ishlarini amalga oshirish jarayonida fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish orqali ularda ijobiy dunyoqarshani shakllantiradi va ilgari sudlangan shaxslarning hulq atvorida ijobiy fazilatlarni shakllantirish maqsadida fuqarolar, mehnat jamoasi, umuman olganda keng jamoatchilik imkoniyatini ishga soladi va mazkur toifadagi shaxslarga tarbiyaviy ta'sir o'tkazadi.

2) Profilaktika (katta) inspektorlari ilgari sudlangan shaxslar bilan huquqbuzarliklarning *maxsus profilaktikasi* – bu o'ziga birlashtirilgan ma'muriy hududda ilgari sudlangan shaxslar o'rtasida huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi chora-tadbirlarini IIVning va hududiy ichki ishlar boshqarma va bo'limlarining normativ huquqiy hujjatlari asosida jumladan, "Nazorat", "Ijro", "Xavfsiz shahar" va boshqa maxsus, tezkor profilaktik tadbirlarni amalga oshirishi tushuniladi.

Profilaktika inspektori tuman (shahar) ichki ishlar bo'limi boshlig'iga bildirgi yozib, ma'muriy nazorat o'rnatish maqsadga muvofiqligi bayon qiladi. Bildirgiga huquqbuzarlik sodir etganligi va tegishli hujjatlar (shaxsning hulq-atvorini ta'riflovchi boshqa fuqarolarning tushuntirish xatlari, javobgarlikka tortilganligi haqidagi bayonnoma nuxsasi) ilova qilinadi. Bu hujjatlar tuman (shahar) ichki ishlar bo'limi boshlig'i tomonidan ko'rib chiqilgandan keyin, ularni shaxs ustidan ma'muriy nazorat o'rnatish zarurligi haqidagi taqdimnoma bilan birga sudga yuboriladi. Taqdimnomaning ikkinchi nuxsasi keyinchalik nazorat yig'ma jildiga qo'yish uchun ichki ishlar bo'limida qoldiriladi.

Sudning ma'muriy nazorat o'rnatish haqidagi qarori tuman (shahar) ichki ishlar bo'limi boshlig'i tomonidan nazorat ostiga olinga shaxsga tilxat orqali e'lon qilinib, nazorat qoidalari, uning majburiyatlari haqida tushuntirilib, ma'muriy nazoratdan bo'yin tovlab, yashash joyini tashlab ketgan taqdirda jinoiy javobgarlikka tortilishi haqida ogohlantiriladi.

Ma'muriy nazorat o'rnatilgan shaxslarga *yig'ma jild* yuritiladi, buning uchun nazoratda turuvchining 9X12 o'lchamdagi fotosur'ati olinib, maxsus kitobda qayd etiladi. Yig'ma jild huquqbuzarliklarni oldini olish xizmati boshlig'i yoki ma'sul xodimning seyfida saqlanadi. Nazoratda turuvchi shaxsga nisbatan olib borilgan barcha tekshiruvlar natijasi bo'yicha to'plangan hujjatlar (profilaktika inspektorining bildirgisi, nazoratda turuvchiga yashash va ish joyida berilgan tavsifnomalar, o'zi, oila a'zolari va qo'ni-qo'shnilarining tushuntirish xatlari va h.k.) yig'ma jildga tikib boriladi.

Profilaktika inspektori ma'muriy nazoratga olingan shaxsning hulq-atvori haqida ish beruvchidan, mazkur shaxs o'qiyotgan joyning ma'muriyatidan, u yashaydigan jamoat birlashmasi va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridan, shuningdek fuqarolardan ma'lumotlar talab qiladi va ularni to'plab boradi. Agarda nazoratda turuvchi shaxs ish va yashash joyiga ega bo'lmasa, uni ish va yashash joyi bilan ta'minlash haqida tegishli davlat, jamoat va xo'jalik tashkilotlariga ish bilan ta'minlash haqida tavsiyalar kiritadi. Nazorat ostiga olingan shaxsni suhbat uchun militsiyaga chaqirish, zarur bo'lganda bunday suhbatlarni ish beruvchining, jamoat birlashmasi va fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organning vakillari, nazorat ostiga olingan shaxsning qarindoshlari, shuningdek suhbat mavzuiga aloqador shaxslar ishtirokida profilaktik suhbatlar o'tkazib boradi. Nazoratda turuvchining turar joyini soat 6.00 dan 22.00 gacha tekshirib, ma'muriy nazorat bilan bog'liq masalalar yuzasidan og'zaki yoki yozma tushuntirishlar talab qiladi.

Nazoratda turgan shaxs boshqa hududlarga borganda, o'sha hudud ichki ishlar bo'limining navbatchilik yoki huquqbuzarliklarni oldini olish xizmati tomonidan vaqtinchalik yashash uchun kelgan nazoratda turuvchilar kitobiga qayd etilib, u vaqtincha

yashaydigan hududdagi profilaktika inspektoriga kelganligi va ketganligi haqida ma'lum qilinadi. Profilaktika inspektori esa uni vaqtincha yashash joyida turmush tarzi va hulq-atvorini nazorat qilib, uning hudduda bo'lish muddati tugagach ketishini ta'minlaydi.

Profilaktika inspektorining ilgari sudlangan shaxslar o'rtasida (biriktirilgan ma'muriy hududda) jazoni ijro etish muassasalari bilan hamkorlikda hamkorlikda profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Ushbu hamkorlikni quyidagi ikkita yo'nalishga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq:

- *profilaktika inspektorlarining jazoni ijro etish muassasalari bilan hamkorligi;*
- *jazoni ijro etish muassasalarining profilaktika inspektorlari bilan hamkorligi.*

1. *Profilaktika inspektorlarining jazoni ijro etish muassasalari bilan hamkorligi;*

Profilaktika inspektorlari jazoni ijro etish muassasalari bilan ilgari sudlangan va ma'muriy nazoratda turgan shaxslar tomonidan huquqbuzarliklar sodir etilishini oldini olish sabablarini hamda uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish, ularni ijtimoiy reabilitatsiya qilishga va ijtimoiy moslashtirishda hamkorlik qiladi. Bunda profilaktika inspektorlari jazoni ijro etish muassasalaridan bushab kelgan ilgari sudlangan va ma'muriy nazoratda turgan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarni hamda olish maqsadida so'rovnoma yuborishi mumkin.

Ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazoni o'tayotgan shaxslar o'rtasida huquqbuzarliklar sodir etilishi sabablarini hamda uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish, ularni ijtimoiy reabilitatsiya qilishga va ijtimoiy moslashtirishga tayyorlash bo'yicha maxsus tadbirlar ichki ishlar organlarining jazoni ijro etish bosh boshqarmasi va jazoni ijro etish muassasalari tomonidan amalga oshiriladi.

Jazoni ijro etish muassasasi ilgari sudlangan shaxsni jazoni ijro etish muassasasidan bo'shatishdan 1 oy oldin ularning tanlagan turar joylaridagi ichki ishlar idoralariga bo'shatilayotgan shaxslarning yetib borish vaqtini xabar qiladi. Agarda mahkumga nisbatan sudyaning ma'muriy nazorat o'rnatish to'g'risidagi qaror i chiqarilgan bo'lsa, unda qaror nusxasini ham yuboradi.

Jazoni ijro etish muassasasi shuningdek profilaktika inspektoridan ozodlikka chiqarilayotgan shaxsni ijtimoiy reabilitatsiyasi va ijtimoiy moslashtirishni ta'minlash bo'yicha tegishli davlat organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari huzurida tashkil etilgan maxsus komissiyalar bu toifadagi shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarini tashkil etayotgan tashkilotlarni rag'batlantirish yoki jazolash to'g'risida taqdimnoma va takliflarni kiritish maqsadida uning ijtimoiy va maishiy ahvolini, uy joyga ega yoki ega emasligi, oila a'zolari bilan o'zaro munosabati va boshqalar to'g'risida ma'lumot so'raydi.

Ozodlikka chiqarilayotgan shaxsning ba'zi bir sabablarga ko'ra aniq boradigan joyi bo'lmasa, hokimiyatlar qoshidagi «maxsus komissiya»lar yordamida uy-joy bilan ta'minlashga (agar shaxs hukm qilinmasdan oldin shu tumanda yashaganligi to'g'risida asosli va daliliy hujjatlar bo'lsa), doimiy yoki vaqtinchalik ro'yxatga qo'yishga hamda ishga joylashtirishga yordam berishni so'rab, shuningdek, nogiron yoki og'ir kasalliklarga (sil,

saraton) chalinganlarini davolash masalalarini oldindan hal qilish to'g'risida hokimliklarga, ichki ishlar va sog'liqni saqlash idoralariga xat yuboradi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, profilaktika inspektori tomonidan ilgari sudlangan shaxslar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etish jinoyatchilikka qarshi kurashishda muhim ahamiyatga ega. Mazkur faoliyatning samaradorligi huquqiy asoslarni to'g'ri qo'llash, individual yondashuv va ijtimoiy hamkorlikning tizimli tashkil etilishiga bevosita bog'liq.

Profilaktika inspektori faoliyatini takomillashtirish orqali ilgari sudlangan shaxslar tomonidan qayta jinoyat sodir etilishining oldini olish, ularning ijtimoiy moslashuvini ta'minlash va jamiyatda huquqiy barqarorlikni mustahkamlash imkoniyati yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 2025 yil 26 dekabr. <https://president.uz/uz/lists/view/8834>

2. Таштемиров А. А., Комилов А. Одам савдоси жиноятига қарши курашишни такомиллаштиришга оид айрим мулоҳазалар //Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2024. – Т. 1. – №. 7. – С. 135-138.

3. Таштемиров, А. А. "Вояга етмаганлар ўртасида ҳуқуқбузарликлар профилактикаси бўйича ички ишлар органларининг ҳамкорлиги." O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali 2.25 (2023): 32-40.

4. Таштемиров, А. А. "Ҳуқуқбузарлик содир этилишининг сабаблари ва шароитларини аниқлаш ва бартараф этиш фаолиятини такомиллаштириш йўналишлари." So'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi 6.12 (2023): 454-461.

5. Tashtemirov A., Baxtiyrov S. Profilaktika inspektorining jinoyat ishlar bo'yicha sudlar bilan hamkorligining o'ziga xos xususiyatlari //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – №. Maxsus son 12. – С. 38-42.

6. Tashtemirov A., Usmonova Y. Profilaktika inspektorining yashash manzillaridan uzoq muddatga ketgan shaxslar bo'yicha ishlash faoliyatini huquqiy ta'minlash //Наука и технология в современном мире. – 2024. – Т. 3. – №. 12. – С. 59-61.

7. Tashtemirov A., Usmonova Y. Profilaktika inspektorining yashash manzillaridan uzoq muddatga ketgan yoshlar bilan ishlash faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – №. 12. – С. 51-52.

8. Tashtemirov A., Raxmonqulov S. Profilaktika inspektorining yashash manzillaridan uzoq muddatga ketgan shaxslar bilan ishlash faoliyatining tushunchasi //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – №. Maxsus son 12. – С. 62-67.

9. Tashtemirov A., Sadullaev M. Huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda iiolari profilaktika inspektorlarining bojxona xizmati bilan hamkorligining tashkiliy-huquqiy asoslari //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – №. Maxsus son 12. – С. 50-53.

10. Таштемиров А. А. и др. Психологическая поддержка деятельности инспекторов профилактики в работе с лицами, осужденные к наказанию исправительные работы //International scientific research conference. – 2024. – Т. 3. – №. 28. – С. 97-102.

11. Таштемиров, А. А. "Фирибгарликка имкон берувчи шарт-шароитлар ва ушбу турдаги жиноятларга тайинланадиган жазо тизимининг ўзига хослиги." Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук 2.10 (2022): 42-48.

12. Таштемиров, А. А. "Йулларда харакатланишни тартибга солишнинг ҳукукий жихатлари ва бу борада технологиянинг ахамияти." siyosatshunoslik, huquq va xalqaro munosabatlar jurnali 1.2 (2022): 111-115.

13. Таштемиров, А. А. "Техник криминалистик экспертиза-ахборот технологиялари орқали содир этиладиган жиноятларни фош этишнинг асосий омили сифатида." *O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali* 2.21 (2023): 12-19.